



FARG‘ONA VILOYATI FARG‘ONA TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 20-noyabr

238-11-163-Q/25

Farg‘ona tumani hokimligi

Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi tasarrufidagi yangi maktabgacha ta’lim tashkilotiga maqom berish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-dekabrda “2023/2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-465-sonli qarori ijrosini ta’minlash hamda Farg‘ona tuman Maktabgacha va maktab ta’lim bo‘limining 2025-yil 20-noyabrda 01-20/2281-sonli xatini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 21¹- moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Farg‘ona tumani maktabgacha ta’lim bo‘limining 2025-yil 20-noyabrda 01-20/2281-sonli xati ma’lumot va asos uchun qabul qilinsin.

2. Farg‘ona tumani “Qorasuv” mahalla fuqarolar yig‘inida joylashgan 24-sonli davlat maktabgacha ta’lim tashkilotining 120 o‘rinli qo‘shimcha binosiga yangi 58-sonli DMTT etib yuridik maqom berilsin hamda mazkur tashkil etilgan ta’lim tashkilotining Ustavi tasdiqlansin.

3. Tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi (Sh.Yuldashev)ga;
- 58-sonli maktabgacha ta’lim tashkiloti tashkil etilishi munosabati bilan tuman statistika bo‘limi (J.Xasanov)ga, tuman Davlat soliq inspeksiyasi (I.Sharopov)ga, tegishli tijorat banklari va boshqa manfaatdor tashkilotlarga ma’lumotlar berish ustidan nazorat o‘rnatish;
- yuridik maqomga ega bo‘layotgan 58-sonli maktabgacha ta’lim tashkilotiga shtatlar jadvali asosida xodimlarni joylashtirish;

- 58-sonli maktabgacha ta'lim tashkiloti joylashgan hudud kesimida tarbiyalanuvchilar hisobini ro'yxatga olish, maktabgacha ta'lim tashkilotiga qabul qilish va ro'yxat asosida tasdiqlash vazifalari yuklatilsin.

4. Tuman iqtisodiyot va moliya bo'limi (A.Yusupov) mustaqil maktabgacha ta'lim tashkiloti maqomi berilayotgan 58-sonli maktabgacha ta'lim tashkilotining shtat jadvallarini va xarajatlar smetasini o'rnatilgan tartibda ishlab chiqsin va tasdiqlasin hamda "UzASBO" dasturiy majmuasida tegishli hisob raqamlarni ochsin.

5. Tuman Ichki ishlar bo'limi, tuman Davlat xizmatlari markazi tumandagi yangi 58-sonli maktabgacha ta'lim tashkilotini belgilangan tartibda aylana muhr va to'rtburchak tamg'asini tayyorlash va tegishli tartibda ro'yxatga olishda amaliy yordam berish vazifasi yuklatilsin.

6. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosari I.Toshpo'latov zimmasiga yuklatilsin

Farg'ona tuman hokimi



Inomov X.T